

O'zbekiston Milliy
universiteti Kengashining
2024yil

1 -son yig'ilish bayoni bilan
tasdiqlangan

O'zbekiston Milliy universiteti
Rektori I.Madjidov

"11" sentabr 2024 y.

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING ODOB-AHLOQ QOIDALARI

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1-modda Ushbu qoidalar bilan tartibga solinadigan munosabatlar

O'zbekiston Milliy universitetining (keyingi o'rinlarda "universitet" deb yuritiladi) mazkur "Odob-ahloq qoidalarini" (keyingi o'rinlarda "Qoidalar" deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, va boshqa oliy ta'limga oid qonun va qonunosti hujjatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, universitetning pedagog (professor-o'qituvchi) va boshqa xodimlari, talabalari, doktorantlari (keyingi o'rinlarda - xodim, talaba va doktorant) kasbiy odob-ahloqining tamoyillari, normalari, ta'lim jarayoni va xizmatdagi xulq-atvorining asosiy qoidalarini bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi, shuningdek rioya etishlari shart bo'lgan xulqatvor qoidalarini va majburiyatlarini belgilab beradi.

Mazkur qoidalarda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

ta'lim-ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim kampusi-yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish ob'ektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti;

tarbiya-aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

manfaatlar to'qnashuvi-shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir kursatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bulgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

korruptsiya-shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy

naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik-korruptsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

xodim, talaba va doktorantning shaxsiy manfaatdorligi-universitetning xodimi, talabalari va doktorantlari tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida ularning yaqin qarindoshi yoki xodim, talaba va doktorantga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari).

mahalliychilik – shaxsni faqatgina qarindoshligi va bunday shaxsning hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan organlardagi qarindoshlarining xizmat mavqei sababli lavozimga qo'yiladigan malaka talablarini hisobga olmasdan ishga yollash, rotatsiya qilish hamda lavozimga tayinlash;

favoritizm – universitet va uning tizimidagi xodimi bir shaxs yoki bir guruh shaxslar manfaatlarini boshqa shaxs va (yoki) shaxslar guruhi manfaatlaridan ustun qo'yish, shu bilan birga, universitet va uning bo'linmalarda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, lavozimi bo'yicha ko'tarish, mukofotlarni hisoblash va davlat mukofotlariga tavsiya qilish, mehnat ta'tillari berish yoki sanatoriyalar va xorij safarlariga yuborish shular jumlasidandir.

2-modda. Odob-axloq qoidasining maqsad va vazifalari

Odob-axloq qoidasining maqsadlari:

- yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, jamiyat, davlat va oila oldida o'z mas'uliyatini his etadigan, vatanparvar va xalqparvar, tashabbuskor va tadbirkor, zamonaviy bilimlar bilan qurollangan hamda yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash;
- universitet jamoa a'zolarining **ma'naviy immunitetini shakllantirish**, saqlash va himoya qilish;
- yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan zo'ravonlik, hayosizlik, shafqatsizlik va boshqa huquqbuzarlikka qaratilgan har qanday xatti -harakatlarning oldini olish;
- yoshlarni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda diniy va ekstremistik ta'sirlardan, tuban "ommaviy madaniyat" xurujlaridan himoya qilishga ko'maklashish;
- o'zaro munosabatlarda bir shaxsning huquqi boshqa shaxsning huquqini paymol qilmasligiga erishish;
- universitetda odob-axloq tushunchasini takomillashtirish va universitetning xodim, talaba va doktorantlarini xulq-atvoriga bo'lgan talablarga oid yagona yondashuvni ishlab chiqishdan iboratdir.

Odob-axloq qoidasining vazifalari quyidagilardan iborat:

- huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, xodim talaba va doktorantlar orasida odob-axloq qoidalarini buzish bilan bog'liq bo'lgan nomaqbul xatti-harakat, jumladan, zo'ravonlik, shafqatsizlik va xayosizlikni targ'ib va tashviq qilish, shuningdek, turli salbiy illatlar va milliy mentalitetimizga yot bo'lgan g'oya va qarashlar, ekstremizm, separatizm, fundamentalizm va "ommaviy madaniyat"ning ta'siri hamda xurujlaridan himoya qilish;
- mazkur nomaqbul xatti-harakatlar sodir etilishining sabab va shart- sharoitlarini aniqlash va ularni bartaraf etish;
- xodim, talaba va doktorantlarni yuksak xuquqiy ong, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga qat'iy rioya qilish ruhida tarbiyalash;
- xodim, talaba va doktorantlarda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini doimo hurmat qilish va himoya qilish ko'nikmasini shakllantirish va yuksaltirish
- xodim, talaba va doktorantlarda vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash;
- **universitetda dunyoviy universitet tmoyilarini** sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish va rivojlantirish;
- universitetning xodim, talaba va doktorantlarida tashqi ko'rinishga oid madaniyatni shakllantirish uchun sharoitlar yaratish;
- universitetning davlat va jamiyat xayotidagi hamda ta'lim tizimidagi nufuzi, obro'-e'tiborini asrab-avaylash va yanada oshirish;
- xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari xamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish.

3-modda. Qoidaning amal qilish doirasi

Ushbu Qoida universitetning barcha xodim, talaba va doktorantlariga nisbatan tatbiq etiladi.

2-BOB. ODOB-AXLOQ QOIDASINING TAMOYILLARI

4-modda. Universitet xodimi, talaba va doktorantlari xulq-atvorining asosiy tamoyillari

Mazkur Qoida qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, vatanparvarlik, xizmat va ta'lim olish burchiga sodiqlik, adolat, xalollik va xolislik, samaradorlik va tejamkorlik tamoyillariga asoslanadi.

5-modda. Qonuniylik tamoyili

Universitetning xodim, talaba va doktorantlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga so'zsiz rioya qiladilar hamda o'z xizmat va o'qish majburiyatlarini lavozim yo'riqnomalari, mehnat shartnomalari, ushbu Odob-ahloq qoidalari, universitet Ichki tartib qoidalari hamda ta'limga oid boshqa me'yoriy hujjatlariga muvofiq bajaradilar.

6-modda. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi tamoyili

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari universitetning oliy qadriyati bo'lib hisoblanadi. Universitetning xodim, talaba va doktorantlari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishiga yo'l qo'ymaydilar va bunday buzilishlar ruy bergan hollarda ularni tiklashga ko'maklashadilar.

7-modda. Vatanparvarlik, xizmat va ta'lim olish burchiga sodiqlik tamoyili

Universitetning xodim, talaba va doktorantlari ta'lim olish va xizmat faoliyatlarini ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar, Vatanga sadoqat, xizmat va ta'lim olish burchiga sodiqlik asosida jamiyatning universitetga bo'lgan talabi va ishonchini ifodalagan holda amalga oshiradilar. Xodim, talaba va doktorantlar ta'lim olish va xizmat burchlarini o'zaro xayrixohlik, o'z manfaatlari va mafkuraviy qarashlaridan qat'iy nazar lozim darajada bajaradilar.

8-modda. Adolat, halollik va xolislik tamoyili

Universitetning xodim, talaba va doktorantlari ta'lim olish va xizmat faoliyatlarini amalga oshirishda adolatli, halol va xolis bo'lishlari hamda universitetga tegishli bo'lgan saytlar va ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qilgan barcha yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ushbu prinsip talablari asosida munosabatda bo'lishlari shart.

9-modda. Samaradorlik va tejamkorlik tamoyili

Universitetning xodim, talaba va doktorantlari o'z faoliyati samaradorligini innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va boshqa yo'llar bilan doimiy ravishda oshirib boradilar.

Universitetning xodim, talaba va doktorantlari, o'z navbatida universitet mulkiga, o'zining va boshqa shaxslarning vaqtiga mas'uliyat va extiyotkorlik bilan yondashadilar.

3-BOB. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

10-modda. Korrupsiyaning har qanday shakl va ko'rinishini qabul qilmaslik

Universitetning xodim, talaba va doktorantlari korrupsiyaning har qanday shakl va ko'rinishini qabul qilmaydilar va uning biror-bir tarzda namoyon bo'lishiga qarshi hamjihatlikda qonuniy choralarni ko'radilar.

Xodim, talaba va doktorantlar korrupsiyaga qarshi kurashishlari va uning profilaktikasiga faol ko'maklashishlari, shuningdek, universitet hududida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik, o'z faoliyatlarini oshkora va adolatli amalga oshirishlari, yuqori axloqiy qadriyatlar va prinsiplarga sodiq

qolgan holda qonun ustuvorligiga qat'iy rioya etishlari shart.

Universitetning xodim, talaba va doktorantlari o'z mavqeidan foydalangan holda yoki jismoniy va yuridik shaxslardan ularning manfaatlarini ko'zlagan holda muayyan harakatni bajarishi yoki bajarmasligi evaziga bevosita o'zi yoki vositachi orqali pul, qimmatli qog'ozlar, moddiy boyliklar, sovg'alar, ssudalar, mulkiy mohiyatga molik bo'lgan xizmatlar olishi ta'qiqlanadi. O'zMU talabasi o'zining akademik majburiyatlarini qat'iy bajarishi, axloqiy, akademik va huquqiy buzilishlarga yo'l qo'ymasligi, shu jumladan:

- plagiat;
- hujjatlarni qalbakilashtirish;
- bilimlarni nazorat qilish bosqichlarida hamda boshqa pulli masalalarda korrupsiya (poraxo'rlik) va boshqa qonunbuzarlik harakatlariga yo'l qo'ymaslik, shuningdek o'qituvchi va boshqa xodimlar ishonchini suiste'mol qilish orqali g'arazli maqsadlarni amalga oshirish;
- yuqori ball olish uchun boshqa shahslar mansabidan yoki xizmat aloqalaridan foydalanish, baxolash jarayoni yoki natijalariga boshqa shaxslar aralashuviga, ta'sir o'tqazishiga.

4-BOB. XODIM, TALABA VA DOKTORANTLARNING YURISH-TURISH VA RASMIY MULOQOTIGA OID TALABLAR

11-modda. Universitetda kiyinish va tashqi ko'rinishga oid qoidalar

Universitetning xodim, talaba va doktorantlari o'z o'qish va kasbiga mos bo'lgan zamonaviy kiyimda bo'lishlari lozim.

Universitetning xodim, talaba va doktorantlari shortik, yirtiq va yamoq kiyim, sport kiyimida kelishi, ularning odamlar e'tiborini tortadigan xususan, tanani shaffof ko'rsatib turadigan, yelka, ko'krak va qorin, tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan hamda haddan ziyod tor kiyimda, shuningdek, metall zanjirlar va boshqa diqqatni tortadigan taqinchoqlar, pirsingda, soqolini o'stirgan holda, ro'molni tomog'ining ostidan bog'lagan (biriktirilgan) tarzda yoki yuzini qoplagan holda o'rab Universitetga kirishi va shu holatda Universitetda yurishiga yo'l quyilmaydi.

Talaba-qizlar universitetga och rangli va yorqin rangda bo'lmagan bluzkalarda, tizzani yopib turadigan yubka yoki odmi kostyum va poyabzalda kelishlari lozim, shuningdek, o'zlari bilan zaruriy o'quv vositalarini olib kelishlari shart.

Universitet xodimi, talabasi va doktoranti bo'lgan erkaklar oq, havorang yoki boshqa och rang ko'ylakda, klassik uslubdagi shim yoki odmi kostyum va poyabzalda kelishlari lozim. Bunda, talabalar o'zlari bilan zaruriy o'quv vositalarini olib kelishlari shart.

Xodim, talaba va doktorantlarning auditoriya va xizmat xonalarida ustki kiyim (plash, palto, kurtka kabilar)da yurishlari ta'qiqlanadi.

Xodimlar, talabalar va doktorantlarning tashqi qiyofasi va kiyimlari ozoda, pokiza

bo'lishi lozim.

12-modda. Majlis va yig'inlarda ishtirok etish

Universitetning xodim talaba va doktorantlari turli tadbirlar (majlislar, tantanali yig'ilishlar, uchrashuvlar, bayramlar)dagi ishtiroki jarayonida so'zga chiquvchilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishlari, tadbir davomida tinchlik va osoyishtalikni saqlashlari shart bo'lib, raislik qiluvchi va moderatorning ruxsatisiz luqma tashlash va so'zga chiqish mumkin emas. Zarurat tug'ilganda nutqlar o'rtasida majlislar zalidan chiqib-kirish mumkin.

13-modda. Binolarda yurish-turish qoidalariga amal qilish

Binolarga kirish va chiqish joylarida, shuningdek, yo'laklarda talabalar xodimlarni, erkaklar ayollarni, yoshlar esa kattalarni o'zlaridan oldin o'tkazib yuborishlari lozim.

Binoga kirayotgan har bir shaxs binolarga kirib-chiqishni nazorat qilish uchun tayinlangan mas'ul shaxs yoki navbatchiga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (xizmat yoki talabalik guvohnomasi, pasport va x.k.) ochiq holda ko'rsatishlari yoki maxsus berilgan ID-karta orqali turniketlardan o'tishlari shart.

Xodim, talaba va doktorantlar universitet xududida yo'lning o'ng tomonidan yurishlari, shuningdek, yo'lak va xollarda mobil aloqa vositalari orqali baland ovozda gaplashmasliklari kerak. Bir-birlariga duch kelganda salomlashishlari, bunda: talabalar xodimlarga, yoshlar kattalarga birinchi bo'lib salom berishlari tavsiya etiladi.

14-modda. Xodim, talaba va doktorantlarning rasmiy muloqot me'yorlari

Universitetning xodim, talaba va doktorantlari tashkilot va muassasalar, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolar bilan o'zaro munosabatga kirishganda quyidagi rasmiy muloqot me'yor va qoidalarga amal qilishlari kerak:

o'z harakatlarini universitet manfaatlarini ko'zlab amalga oshirish, uning imijini saqlash va oshirish, universitet, uning xodimlari, talabalari va doktorantlari nomi va manfaatlariga ziyon yetkazadigan harakatlarni amalga oshirmaslik, shuningdek, ular bilan muloqot qilganda hamda ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarida o'zlarining namunali hulq-atvori bilan universitet haqida ijobiy taassurot uyg'otish;

Universitet, universitetning xodim, talaba va doktorantlari haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yoki noto'g'ri talqin qilingan, noto'g'ri talqin qilish uchun imkon beradigan ma'lumotlarni tarqatmaslik, bunday ma'lumotlar tarqalishiga yul qo'ymaslik (xizmat vazifasi doirasida), shuningdek, jamoat oldida va ijtimoiy tarmoqlarda bunday ma'lumotlar bilan chiqishlar qilmaslik;

xodim, talaba va doktorantlarning roziligisiz ularning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni oshkor qilmaslik;

xodim, talaba va doktorantlar haqida ularning kasbiy va o'quv faoliyatiga oid bo'lmagan ma'lumotlarni aniqlashtirmaslik;

xizmat axborotlarini taqdim etish qoidalariga amal qilish;

so'ralgan axborotni yetarlilik (xaddan tashqari qisqa shu bilan birga o'ta keragidan

ortiq) va ishonchlilik (qayta tekshirishni talab qilmaydigan) talablariga muvofiq holda taqdim etish;

o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida olingan ma'lumotlardan maqsadga muvofiq bo'lmagan tarzda foydalanmaslik, shuningdek, ularni universitet rahbariyati ruxsatisiz tarqatmaslik va boshqa tashkilotlarga yo'llamaslik;

xodim, talaba va doktorantlarning ta'lim jarayonidagi faoliyati va kasbiy xarakatlarini asossiz tanqid qilmaslik, jamoat oldida chiqishlar, shunindek, ommaviy axborot vositalari va turli xil ijtimoiy tarmoqlarda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va universitet faoliyati, uning xodimlari harakatlarini haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, asossiz va aniq dalillarga asoslanmagan holda muhokama qilmaslik va ular xaqida baho berib, fikr-mulohazalar bildirmaslik.

15-modda. Ish va ta'lim olish vaqtiga rioya qilish

Xodim, talaba va doktorantlar dars mashg'ulotlari va ishga o'z vaqtida kelishlari, mehnat hamda o'qish intizomiga rioya qilishlari shart.

16-modda. Universitetda g'ayriahloqiy va nojo'ya xatti- harakatlarni sodir etishga yul qo'yilmasligi

Talaba va doktorantning o'qishiga, xodimning esa universitetda mehnat faoliyatini yuritishiga to'sqinlik qiladigan quyidagi g'ayriahloqiy va nojo'ya xatti-harakatlarni sodir etishi qat'yan taqiqlanadi:

har qanday huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etish, jumladan, tuxmat qilish, haqoratlash;

giyoxvand moddalar, psixotrop vositalar va ularning analoglari, spirli ichimlik va tamaki mahsulotlarini universitetda iste'mol qilish va tarqatish;

tinchlik yoki osoyishtalikka qarshi tajovuz qilish, janjallashish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar o'ynash;

universitetga moddiy va uning o'brasiga salbiy ta'sir etuvchi ma'naviy zarar yetkazish;

xodim, talaba va doktorantlarga jismoniy, ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazish;

universitet hamda uning binolari atrof-muhitini har qanday ko'rinishda ifloslantirish;

universitet binolari va xovlisida, shuningdek, universitet binolariga tutashgan xududda spirtli ichimliklar ichish va tamaki yoxud boshqa turdagi mahsulotlarni chekish hamda mast holda bo'lish, tashqi ko'rinishga va belgilangan etiket qoidalariga zid ravishda sochlari o'sgan, to'zg'igan, soqoli olinmagan va kiyinish talabiga rioya qilmagan holda kelish;

universitetga tegishli kompyuterlarda universitetga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy ma'lumotlar, bexayo surat va filmlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni targ'ib qiluvchi, ekstremistik, separatistik va fundamentalistik kayfiyatdagi har qanday materiallarni tayyorlash, ko'rish, saqlash, tarqatish va ularga da'vat etish;

o'quv mashg'ulotlari va ishga hamda xodim va talabalarning osoyishtaligiga

xalaqit beradigan xatti-harakatlar sodir etish (radiouzatgich, televizor, multimedia va ovoz chiqaruvchi moslamalardan maqsadsiz foydalanish yoxud zarar yetkazish);

umumbashariy va milliy qadriyatlarga xos bo'lmagan yoki universitet, uning xodimlari nufuziga putur yetkazadigan materiallarni Internet tarmog'i va boshqa ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish yoki ulardan turli nomuvofiq maqsadlarda foydalanish.

Xodimlar, talabalar va doktorantlar tomonidan universitetning obro'si, qadr-qimmati va nufo'zini tushiradigan, ta'lim jarayonining ma'naviy buzilishiga olib keladigan agressiya, odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, zo'rlash va vaxshiylik, vandalizm, millatlararo nizo qo'zg'atadigan, diniy yo'nalishdagi, terrorizm, ekstremizm va fundamentalizm, shuningdek, bexayo va ishqiy saxnalarni namoyon qiladigan fotosuratlar, video va audioyozuvlardan foydalanish va ularning tarqatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va universitet faoliyati, uning xodimlari hamda talabalari sha'ni, qadr-qimmati hamda obrusiga salbiy ta'sir qiluvchi xaqiqatga to'g'ri kelmaydigan, asossiz va tekshirilgan dalillarga asoslanmagan turli xil ko'rinishdagi ma'lumot, fikr, mulohaza va munosabatlarni Internet, ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, boshqa ommaviy axborot manbalarida, tarqatuvchilarda, tashuvchilarda paydo bo'lishi (oshkor etilishi) hamda shunday ma'lumotlarga ijobiy munosabat bildirish, mazkur talaba va doktorantning o'qishiga, xodimning esa universitetda mehnat faoliyatini yuritishiga to'sqinlik qiladigan g'ayriahloqiy va nojo'ya xatti-harakat bo'lib hisoblanadi.

Xodimlar tomonidan Odob-axloq qoidalari normalariga rioya qilinmagan holatlar yuzasidan hamda intizomiy qilimish sodir etilishi tufayli mehnat qonunchilikda belgilangan tartibda ularga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilishi mumkin (MKning 302-moddasi).

O'zaro yaqin qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslarning (otona, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotin, shuningdek er-xotinning otanasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) aynan bitta davlat tashkilotida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo'lishiga bog'liq bo'lsa taqiqlanadi. Ushbu qoidadan istisnolar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi mumkin. (MKning 121-moddasi)

5-BOB. UNIVERSITET RAHBARIYATINING ODOB-AXLOQQA OID MAJBURIYATLARI VA KASBIY FAOLIYATIDA MANFAATLAR TO'QNASHUVIGA YO'L QO'YMASLIKKA OID TARTIBLAR

17-modda. Rahbarning majburiyatlari

Universitet rahbariyati hamda tarkibiy bo'linma rahbarlari (keyingi o'rinlarda - rahbar) o'ziga bo'ysunuvchi xodimlarga nisbatan yuqori professionallik, xolislik, soflik va adolatda o'rnak bo'lishi, universitet yoxud uning tarkibiy bo'linmasida ijobiy, ma'naviy-psixologik muhit shakllanishiga ko'maklashishi lozim. Rahbar bo'ysunuvchi xodimlardan ularning xizmat vazifalari doirasidan chiquvchi topshiriqlarni bajarishini

talab qilmasligi, shuningdek, qonunga xilof xatti-harakatlarni sodir etishga undamasligi kerak.

Rahbar o'z faoliyatida:

kadrlarni qarindoshlik, hamshaharlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlash va joy-joyiga qo'yish va mehnat munosabatlarida kamsitish holatlariga yo'l qo'ymasligi;

guruxbozlik, maxalliychilik, favoritizmga, shuningdek, o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning kelib chiqishiga yul ko'ymasligi;

qo'pollik qilmasligi, odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga psixologik va jismoniy ta'sir ko'rsatmasligi;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rishi;

korupsiyaning oldini olish choralari ko'rishi;

xodimlarning kasbiy va intellektual jihatdan rivojlanishlari uchun qulay ish joyi, zamonaviy kompyuterlar, internet tarmog'i, kutubxona fondi va axborot resurslaridan erkin foydalanishlari, xordiq chiqarishlari, dam olishlari, jismonan chiniqishlari uchun barcha sharoitlarni ichki imkoniyatlardan kelib chiqib yaratib berishi;

xotin-qizlarga tazyiq (*ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, xotin-qizlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat (harakatsizlik), shilqimlik va zo'ravonlik* —(*xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralari qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik)*) dan universitetda xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralari ko'rishi;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, ularga chek qo'yish uchun samarali usullardan foydalanishi;

xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi vakolatli organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi;

xodimlar faoliyatini samarali tashkil etib, o'ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag'larga extiyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishi shart.

Rahbar qo'l ostidagi xodimlarning mehnat intizomiga rioya qilishlarini talab qilishi va uni ta'minlashga mas'uldir.

6-BOB. XODIM, TALABA VA DOKTORANTLARNING O'ZARO MUNOSABATLARIGA OID TALABLAR

18-modda. Xodim, talaba va doktorantlarning o'zaro munosabatlari

Xodim, talaba va doktorantlarning o'zaro munosabatlari milliy qadriyat va an'analar, yagona jamoaviy muhit, o'zaro hurmat va e'tibor, do'stlik, hamjixatlik, xalollik va adolat tamoyillariga asoslanishi lozim.

Xodim, talaba va doktorantlarning o'zaro munosabatlarida inson qadr-qimmatiga hurmatsizlik, shaxsiyatni kamsitish, o'zganing intellektual mulkini o'zlashtirib olish, qo'pollik, bexayo so'zlar ishlatish, mushtlashish kat'iyon man etiladi.

Pedagog xodimlar tomonidan talabalarga nisbatan o'quv va tarbiya jarayonidagi yuqori talabchanlik ularning shaxsini hurmat qilish bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak.

19-modda. Pedagog xodim va talabalarning auditoriyadagi va undan tashqaridagi o'zaro munosabatlari

Pedagog xodim auditoriyaga kirganida, barcha talabalar o'rinlaridan turib xurmatlarini bildirgan holda kutib olishlari, so'ngra pedagog xodim salomlashib, o'tirishga ruxsat bergach, o'z joylarini egallashlari kerak. Pedagog xodim darsini tugatib, auditoriyadan chiqib ketayotganda ham talabalar o'rinlaridan turib, kuzatib qo'yishlari lozim.

Pedagog xodimlar o'quv jarayoni va boshqa holatlarda ham talabalarning shaxsini hurmat qilishi, ular bilan munosabatda ochiqlik va xayrixoxlik tamoyillariga amal qilish, talabalarga ta'lim berish jarayonida o'z vazifalarini beg'araz amalga oshirishi, talabaga munosabatda ularni kamsitish, qo'pol so'z ishlatish, o'zini yuqori tutish va tanish-bilishchilik kabi yondashuv shakllarini mutlaqo qo'llamaslik, ularga nisbatan doimo xaqqoniy munosabatda va xolis bo'lishlari shart.

Pedagog xodimlar talabalarga ularni qiziqtirgan fan yoki o'quv kursiga oid masalalar yuzasidan dars jarayonidan tashqari vaqtlarda bergan savollariga ham axloq me'yorlariga amal qilgan holda javob qaytarishlari va ularni fanga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqlarini oshirish choralarini ko'rishlari zarur.

20-modda. Akademik ta'qiq va tazyiqqa yo'l qo'yilmasligi

Universitet hayotida rahbariyat yoki pedagog xodim tomonidan talabalarni ularning roziligisiz muayyan ishlarga jalb etganlik, xaq to'lamasdan ularning mehnat kuchidan foydalanish (universitet va unga biriktirilgan boshqa xududda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan xavfsizlik standartlariga qat'iy rioya qilingan holda ixtiyoriy shanbalik va boshqa turdagi tadbirlar tashkil etilgan hollar bundan mustasno) maqsadida ularga murojaat etilganida, talabalar tomonidan bunday so'rovga rad javobining berilishi pedagog xodim tomonidan kelgusida ularga dars mashg'ulotida past baho qo'yish yoki boshqa turdagi tazyiq va ta'qib qilish bilan bog'liq munosabat ko'rsatilishiga imkon bermaydi va bunday ta'qib tegishli javobgarlikka sabab bo'ladi. Shuningdek, Universitet pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashga ta'sir ko'rsatishga, shuningdek, ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmaydi.

21-modda. Uyali aloqa vositalaridan foydalanish

Dars mashg'ulotlari vaqtida uyali aloqa vositalaridan foydalanish barcha uchun qat'iyan taqiqlanadi. Uyali aloqa vositalaridan foydalanishga zarur va uzrli holatlarda pedagog xodimning ruxsati bilangina ruxsat etilishi mumkin.

22-modda Dars mashg'ulotida ishtirok etish

Talabalarning darsga kech qolib kelishlariga yohud dars mashg'ulotlari jarayonlarini tashlab ketishiga yul qo'yilmaydi. Lekin uzrli sababga ko'ra darsga kech qolgan talaba uzr surab, pedagog xodimning ijozati bilan auditoriyaga kirib o'z joyini

egallashi mumkin. Shuningdek talaba dars tugashidan oldin uzrli sabablarga ko'ra ruhsat so'ragan holda ketishi mumkin (turli tadbirlar, diniy marosimlarda qatnashish uzri sabab bo'lmaydi).

Pedagog xodim dars mashg'ulotlariga o'zining nojo'ya harakatlari bilan xalaqit berayotgan talabani yuzaga kelgan vaziyat haqida fakultet dekanini (dekan o'rinbosari yoki tyutor-gurux murabbiysini) xabardor qilgan holda darsdan chetlatishi mumkin,

O'quv jarayoni talabalar, ish beruvchi, o'qituvchilar va ma'muriyat o'rtasida ochiq muloqot shaklida talabaga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim standartlarini o'quv rejalarini, dasturlarini, HEMIS tizimini inobatga olgan holda rejalashtiriladi. Ushbu jarayonda ish beruvchi va talabalarning talab va istaklari muhokama qilinishi mumkin. Barcha manfaatdor tomonlar ta'lim dasturining yaratilishi va o'zlashtirilishi bo'yicha o'tkaziladigan muhokamaga jalb etilishi mumkin.

23-modda. Dars mashg'ulotidan tashqari vaqtda muloqot qilish

Talaba uchun pedagog xodim bilan dars mashg'ulotlaridan tashqari vaqtda muloqot qilish zarurati bo'lsa, u holda muloqot:

maslaxat soatlari, mustaqil ish yoki o'zaro kelishuv buyicha belgilangan vaqtda amalga oshirilishi mumkin;

talaba o'zi muloqot qilmoqchi bo'lgan pedagog xodimning lavozimi, ismi, otasining ismi va familiyasini bilishi maqsadga muvofiq.

Asoslangan jiddiy sabablar (qo'pollik, tamagirlik, dars sifatining pastligi, pedagog xodimning aybi bilan mashg'ulotlar o'tkazilishidagi muntazam uzilish xollarini isbotlovchi dalillar va b.) hamda gurux (kurs)ning yakdil fikri mavjud bo'lgan holatlarda talabalar pedagog xodimni almashtirish hakida iltimos bilan fakultet dekaniga murojaat qilishlari mumkin.

Talabalar dars mashg'ulotlaridan tashqari vaqtda professor-o'qituvchilardan maslaxat olish uchun kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan grafik asosida maslaxat soatlari belgilab qo'yilishi mumkin.

24-modda. Subordinatsiya

Universitet rahbar xodimlariga xodim, talaba va doktorantlar tomonidan biron-bir masala yuzasidan vujudga kelgan xolatlar buyicha murojaat qilinishi muayyan tartib (subordinatsiya tamoyili), ya'ni munosabat bildirishdagi rahbariyat bo'g'inlariga bosqichma-bosqich chiqish asosida tashkil etiladi. Universitet rektoriga talabalarning to'g'ridan-to'g'ri qabul vaqtlari yoki so'rab kelishilgan vaqtlari (zarur xolda istalgan vaqtda) murojaat qilish holatlari bundan mustasno.

25-modda. Tashabbus va faollik

Xodim, talaba va doktorantlarning universitetda ma'naviy-ahloqiy muhitni yanada yaxshilash, ta'lim sifatini oshirish, innovatsion g'oyalardan samarali foydalanish, turli xil manfaatli tadbirlar uyushtirish buyicha tashabbus va g'oyalari rag'batlantiriladi.

7-BOB. XODIM, TALABA VA DOKTORANTLARNING ODOB- AXLOQQA OID MAJBURIYATLARI

26-modda. Odob-axloqqa oid majburiyatlar

Universitetga o'qishga, ishga kirayotgan har bir shaxslar mazkur Qoida bilan yozma ravishda (imzo chektirib) tanishtiriladilar.

Xodim, talaba va doktorantlar:

qonun hujjatlari va mazkur Qoida talablariga rioya etishga;

doimo yuksaklikka intilish, xalollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarini chuqur anglashga;

odob-axloqqa oid milliy an'analarimiz, urf-odat va qadriyatlarimizni hurmat qilishga;

universitetda xotin-qizlarga nisbatan yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatishga;

xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini hurmat qilishga;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning har qanday ko'rinishiga chek qo'yish bo'yicha birgalikda harakat qilishga;

o'z ustilarida doimiy ravishda ishlash va qabul qilinayotgan qonun hujjatlarini muntazam ravishda o'rganib borishga;

o'z vazifalarini vijdonan, professional darajada amalga oshirishga;

universitet obro-e'tibori va nufuziga dog' tushiradigan har qanday harakatlarni sodir etishdan o'zini tiyishga;

universitet to'g'risidagi axborotlardan uning manfaatlari va obro'siga ziyon yetkazish maqsadida foydalanmaslikka;

universitet mulkiga extiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish (ko'char va ko'chmas mulk, o'simlik va hayvonot dunyosiga va b.), shu jumladan, xizmat vazifasini bajarish uchun berilgan moddiy texnika vositalaridan to'g'ri va tejamkorona foydalanishga;

elektr energiyasi va suvni tejamkorona ishlatishga;

biron-bir noxush voqea yoki hodisa ro'y bersa, u hakda zudlik bilan universitet rahbariyatiga xabar berishga;

belgilangan cheklovlar va taqiqlarga rioya qilish, o'z vazifalarini og'ishmay bajarishga, xodim, talaba va doktorantlarning shaxsiy va oilaviy muammolarini muhokama qilmaslikka, xech bir shaxs haqida jinsi, irqi, millati, tili, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va lavozimi haqida hamda boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar noto'g'ri fikr yuritmaslikka va uni kamsitmaslikka;

xodim, talaba va doktorantlar, shuningdek, boshqa shaxslar haqida turli ig'vo, fitna, g'iybat va bo'xtonlar uyushtirmaslikka va tarqatmaslikka;

universitet obro'si yoki nufuziga putur yetkazadigan nizoli vaziyatlarga yul qo'ymaslikka;

xodim, talaba va doktorantning mehnat va o'quv jarayonidagi sa'y- harakatlariga kasddan ziyon yetkazmaslikka;

davlat organlari va mansabdor shaxslarning, shuningdek, universitet rahbariyatining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan (bergan) qarorlarini (topshiriqlarni) o'z vaqtida va sifatli bajarishga;

shaxsiy foydasi hamda o'zgalar manfaatini ko'zlab o'z mavqeini suiiste'mol qilmaslikka;

xaqiqatni gapirishga, rahbarlar va boshqa xodimlarni chalg'itmaslikka;

mutasaddi xodimlarning ruxsatisiz turli reklama vositalarini o'rnatmaslikka;

kasbiy faoliyati davomida o'zlariga ma'lum bo'lgan, ularning oshkor etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beriladigan axborotning saqlanishi va maxfiyligini ta'minlash yuzasidan barcha choralarni ko'rishga;

sog'lom turmush tarzini yuritish va atrofdagilarning sog'ligini saqlashga g'amxo'rlik qilish, estetik va ekologik madaniyatning oshishiga ko'maklashishga;

tanqidiy mulohazalarni bildirishga va ob'ektiv qaror qabul qilishga, o'z xato va kamchiliklarini anglash va bartaraf etishga;

moddiy jixatdan yaxshi ta'minlanganligini turli yo'llar bilan ataylab ko'z-ko'z qilmaslikka;

Axborot-resurs markazi xodimlari bilan xushmuomala bo'lishga, kitoblar va jihozlarga extiyotkorona munosabatda bo'lishga, u yerda uyali aloqa vositalarini o'chirib qo'yish yoki ovozsiz rejimga qo'yishga, baland ovozda so'zlashmaslik va atrofdagilarga xalaqit bermaslikka, qog'oz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslikka, kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilishga;

sport majmuasiga sport kiyimi va poyabzalida kirishga;

sport inventarlariga nisbatan extiyotkorona munosabatda bo'lishga, mashg'ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirishga;

sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilishga;

universitet auditoriyalari, binolari va binolarga tutashgan xududda tozalikni saqlashga;

xududni ifloslantirmaslik, chiqindilarni joylarda qo'yilgan maxsus qutilarga tashlashga;

shaxsiy avtomobilni taqiqlangan joyda qoldirmaslik, yo'l harakati qoidalarini buzmaslik va mensimaslikka (beparvo bo'lish), shuningdek, transport vositalaridan foydalanishda xavf-xatar yaratmaslikka;

ish (o'qish)dan tashqari vaqtda umumiy qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etishlari, g'ayri ijtimoiy xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslikka majbur.

xodimlar, talaba va doktorantlar xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning har qanday ko'rinishidan himoyalaniish huquqiga ega;

o'ziga nisbatan sodir bo'layotgan tazyiq va zo'ravonlik haqida universitetning, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining himoya tarmoqlari orqali yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishi mumkin.

27-modda. Odob-axloqqa oid qo'shimcha talablar

a) talabalar:

nutq madaniyatini doimiy takomillashtirib borishga;

talabalarning o'z-o'zini boshqarish tizimini faol qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, ijodiy faoliyatni rivojlantirish va jamoaviy madaniyatni o'stirishga;

pedagog xodim bilan boshqa talabalarning bahosini muhokama qilmaslikka;
yozma ishlarni himoya qilish va reyting nazoratiga doir tartib-qoidani bajarish vaqtida chetdan yordam olmaslik, o'zgalarga yordam ko'rsatmaslikka;

boshqa shaxslar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni o'z nomidan topshirmaslikka;

mashg'ulotlarni sababsiz o'tkazib yubormaslikka va darslarga sababsiz kechikib kelmaslikka;

o'quv mashg'ulotlari vaqtida universitet xududida bexuda yurmaslikka;

dars mashg'ulotlari o'tilayotgan vaqtda fakultet dekani, dekan o'rinbosari, guruh murabbiysining ruxsatisiz universitet xududidan ketib qolmaslikka;

xodim, talaba yoki doktorant bilan nizoli vaziyat yuzaga kelganda o'z xislatlarini jilovlashga va mazkur vaziyatni ko'rib chiqish buyicha tegishli bo'linma va xodimlarga (murabbiy (tyutor), dekan, O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, universitet jamoatchilik tashkilotlariga) murojaat qilishga;

o'quv jarayonida faol, e'tiborli bo'lishga va pedagog xodimning ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilishga;

dars vaqtida gaplashmaslik hamda dars mashg'ulotiga taalluqli bo'lmagan ishlar bilan shug'ullanmaslikka;

jihozlarga extiyotkorona munosabatda bo'lish, stol va stullarga yozmaslikka;

qog'oz, saqich va boshqa keraksiz narsalarni auditoriyada qoldirib ketmaslikka;

mashg'ulotlar davomida ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslikka, shuningdek, shaxsiy kompyuter va boshqa kommunikatsiya vositalaridan faqat pedagog xodim ruxsati bilan foydalanishga;

pedagog xodimga mashg'ulotlar vaqtida savol yoki iltimos bilan qul ko'targan holda va ruxsat berilganidan so'ng murojaat qilishga;

umumiy ovqatlanish joylarida taomlarga buyurtma berish va olishda navbat tartibiga hamda belgilangan qoidalarga rioya qilishga;

Talabalar turar joyi nizomi mezonlariga (Ichki tartib qoidalariga) qat'iy rioya qilishga;

jamoat xavfsizlik manfaatlaridan kelib chiqib, imkon darajasida universitetga jamoat transportida kelishga;

b) xodimlar:

o'z xizmat joyidagi tartib-intizomga va Universitet ichki tartib (Ichki mehnat tartib qoidalari)ga rioya qilishga;

ta'tildan oldin yoki mehnat shartnomasi bekor qilinganda o'z xizmat joyini talabga javob beradigan holatda qoldirishga, o'z zimmasidagi orgtexnika vositalari va boshqa materiallarni, o'ziga topshirilgan, lekin xali yakunlanmagan vazifalarni boshqa shaxsga topshirmaslikka;

telefon orqali muloqot qilishda muomala madaniyati va axborot taqdim etish qoidasiga rioya qilishga (jumladan, suhbatni eng avval rasmiy tarzda salomlashishdan boshlab, so'ng o'z xizmat muassasasi, lavozimi hamda familiyasi, ismi, sharifini aytib, maqsadga o'tish lozim. Taqdim etilayotgan axborot maksimal qisqa, lo'nda va aniq bo'lishi kerak, so'ralayotgan ma'lumot suhbat jarayonida izlanishi tufayli telefon

tarmog'ini band qilishga yo'l qo'yilmaydi, zarurat bo'lsa, qayta qo'ng'iroqni amalga oshirish mumkin);

yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashga;

yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyoxvandlik illatlaridan, boshqa turli xalokatli taxdidlar hamda biz uchun yot bo'lgan ekstremistik ta'sirlardan, "ommaviy madaniyat" xurujlaridan oqox etib borishga;

ta'lim oluvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda va ma'rifiy ishlarning samarali shakl xamda uslublarini ishlab chiqishga ko'maklashishga;

o'z xizmat vazifalarini vijdonan bajarishga shubxa tug'diradigan xatti-harakatlarni qilmaslikka, talabalar bilan o'z xamkasblarini kasbiy va shaxsiy kamchiliklarini muhokama qilmaslikka;

talabalarni asossiz o'quv mashg'ulotlaridan chiqarib yubormaslikka, shuningdek, talabaga universitet talabalar safidan chetlashtirish (kursdan kursga qoldirish) yoki talabaning majburan o'qishdan voz kechishiga undash bilan qo'rqitmaslikka, uning asossiz talabalar safidan chetlashtirilishiga (kursdan-kursga qoldirilishiga) olib kelmaslikka;

akademik guruhda (kursda) talabalar hulqining umumiy madaniy holati haqida fakultet dekanlariga kerak bo'lgan hollarda ta'sir choralari ko'rish lozimligi yuzasidan yozma ma'lumot taqdim etish kabi talablarni bajaradilar.

8-BOB. RAG'BATLANTIRISH VA ChORA KO'RISH TARTIBI

28-modda. Xodim va talabalarni rag'batlantirish

Ishdagi yutuqlar uchun xodimlarni rag'batlantirish choralari qo'llanilishi mumkin. Rag'batlantirish turlari, ularni qo'llash jamoa shartnomasida hamda mehnat to'g'risidagi boshqa huquqiy hujjatlarda belgilanadi. Xodimlar mehnat sohasida jamiyat va davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun davlat mukofotlariga ham o'rnatilgan tartibda tavsiya etilishi mumkin (MKning 299-moddasi)

O'quv yili davomida mazkur Qoidaga to'la rioya qilgan, universitetda yuksak ma'naviy-ahloqiy muhitning yanada qaror topishi va mustahkamlanishiga o'z xissasini qo'shgan talabalar rahbariyat, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va boshqa tarkibiy bo'linma rahbarlari tavsiyasiga binoan belgilangan tartibda moddiy yoki ma'naviy rag'batlantirilishlari mumkin.

29-modda. Qoidaga rioya qilishning attestatsiya va boshqa jarayonlar uchun ahamiyati

Xodimlar tomonidan mazkur qoidalarga rioya etilishi attestatsiyalar o'tkazishda, yuqori va boshqa lavozimlarga tayinlash (kareraviy o'sish) uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishda hisobga olinadi.

30-modda. Odob-ahloq qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik

Universitet xodim, talaba va doktoranti tomonidan mazkur koidalarning buzilishi uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga asos bo'lib xizmat

qiladi.

31-modda. Odob-ahloq va ichki tartib-qoidalarining o'zaro munosabati

Universitetning xodim, talaba va doktorantlari mazkur Qoidalarini buzganida, ularga nisbatan universitet Ichki tartib qoidalarining tegishli bandlarida qayd etilgan tegishli choralar qo'llaniladi.

9-BOB. ODOB-AXLOQ KOMISSIYASI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

32-modda. Odob-axloq komissiyasi

Mazkur Qoidalar xodim, talaba va doktorantlar tomonidan buzilishiga oid masalalar universitet odob-axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Odob-axloq komissiyasi kabul kilingan odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi nizom, mazkur Qoidalar xamda universitet rektorining buyruklari asosida faoliyat olib boradi.

Shuningdek, Odob-axloq komissiyasi universitet rektorining ko'rsatmasi bo'yicha;

- xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra;

- o'z tashabbusi bilan;

- universitetning xodim, talaba va doktorantlaridan, shuningdek, universitetga kelib tushgan axborot asosida ham ushbu turdagi masalalarni ko'rib chiqadi.

Odob-axloq komissiyasi kamida 5-9 kishidan iborat tarkibda tuziladi. Odob-axloq komissiyasining maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquqlari va uning faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq boshqa masalalar universitet rektori tomonidan tasdiqlangan "Odob-axloq komissiyasi to'g'risida"gi nizomda belgilanadi.

33-modda. Odob-axloq komissiyasi xulosasi

Odob-axloq komissiyasi tomonidan mazkur qoidalar buzilishi holatlari o'rganib chiqilib natijalari bo'yicha xulosa chiqariladi hamda xodim, talaba va doktorantni intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida rahbariyatga taklif kiritiladi. Yo'l qo'yilgan qoida buzilishining xususiyatini hisobga olgan holda Odob-axloq komissiyasi xodim, talaba va doktorantga nisbatan Odob-axloq tartibining buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin.

Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilgan deb taxmin qilish uchun asos beradigan ma'lumotlar asos bo'ladi. Ish beruvchi xizmat tekshiruvi o'tkazish haqida qaror qabul qilishga haqli. Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi qaror tegishli buyruq bilan rasmiylashtiriladi. (MKning 303-moddasi)

Xizmat tekshiruvi o'tkazish uchun ish beruvchining buyrug'i bilan xizmat tekshiruvi o'tkazish bo'yicha komissiya tuziladi. Komissiya faoliyati, uning huquq va majburiyatlari Mehnat Kodeksining 304-305 moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Odob-axloq tartibiga rioya etmagan xodim, talaba va doktorantni intizomiy

javobgarlikka tortish bo'yicha buyruq loyihasi fakultet dekanlari (talabalarga nisbatan), xodimlar bo'limi (xodimlar va doktorantlarga nisbatan) tomonidan tayyorlanadi.

O'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodimning huquq va majburiyatlari Mehnat Kodeksining 306-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi

Xodim, talaba va doktorantlar qoidalar buzilishi ko'rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o'zini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etish, shuningdek, universitet qarorlari yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga egadirlar.

34-modda. Jamoatchilik nazorati

Xodim, talaba yoki doktorantning xulq-atvori ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash maqsadida, mazkur Qoidaga rioya etmaganlik holatlari universitet Kasaba uyushmasi qo'mitasi, Xotin-qizlar masalalari buyicha maslaxat kengashlari va O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotida ham muhokama qilinishi amaliyoti joriy etilishi mumkin.

10-BOB. YAKUNIY QOIDA

35-modda. Qoidaning kuchga kirishi xamda unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish

Mazkur Odob-ahloq qoidalari universitet Kengashi a'zolari tomonidan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi va unga o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritish universitet Kengashi karoriga binoan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Milliy universiteti Kengashining 2022 yil 26 avgustdagi 1-son yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan xamda universitet Kengashining 2024 yil 26 avgust dagi 1-son yig'ilish bayoni bilan 1-bob 1, 2-modda; 3-bob 10-modda; 4-bob 11, 14, 16-modda; 5-bob 17-modda; 6-bob 22, 23, 24-modda; 7-bob 26, 27-modda; 8-bob 28-modda; 9-bob 32, 33-moddalarga kushimchalar kiritilgan.

Ushbu O'zbekiston Milliy universitetining Odob-ahloq qoidalari O'zbekiston Milliy universiteti Kengashining 2024 yil 26 avgust dagi 1-son yig'ilish bayoni bilan taxrir etilib tasdiqlangan.